

INFLYATSIYA PRAGNOZINING SHAKLLANISHIDA INFLYATSION KUTILMALARNING ROLI

Eshpo'latova Mohinur Kamol qizi

Bank-moliya akademiyasi, ikkinchi bosqich magistranti

mokhinureshpolatova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda inflyatsiya prognozining shakllanishida inflyatsion kutilmalarning o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Inflyatsion kutilmalar xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholining kelajakdagi narxlar o'zgarishi haqidagi fikrlari bo'lib, ular iste'mol, jamg'arma va investitsiya qarorlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotda inflyatsion kutilmalarning shakllanish mexanizmlari – adaptiv, ratsional va aralash yondashuvlar asosida o'rganilib, ularning iqtisodiy barqarorlikka ta'siri ilmiy asosda izohlangan. Shuningdek, Markaziy bankning kommunikatsion siyosati, foiz stavkalari va axborot siyosati orqali kutilmalarni boshqarish imkoniyatlari yoritilgan. O'zbekiston sharoitida inflyatsion kutilmalar darajasi ko'p jihatdan aholining ishonch darajasi va pul-kredit siyosatining barqarorligiga bog'liq ekani aniqlangan. Tezisda inflyatsion kutilmalar va real inflyatsiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik iqtisodiy-matematik modellar yordamida asoslab berilib, inflyatsiya targetingi tizimi doirasida ularning to'g'ri shakllanishi muhim shart ekanligi ta'kidlangan. Natijada, inflyatsion kutilmalarni samarali boshqarish inflyatsiya prognozining aniqligini oshirish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil sifatida baholangan.

Kalit so'zlar: Inflyatsiya, prognoz, inflyatsion kutilmalar, pul-kredit siyosati, narxlar darajasi, iqtisodiy barqarorlik, monetar siyosat, markaziy bank, foiz stavkasi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida inflyatsiya jarayonlari mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligi, aholi farovonligi va iqtisodiy o'sish sur'atlariga

bevosita ta'sir ko'rsatadigan eng muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Inflyatsiya darajasining to'g'ri prognoz qilinishi davlatning iqtisodiy siyosatini shakllantirishda, xususan pul-kredit siyosati, byudjet siyosati va ijtimoiy dasturlarni rejalashtirishda muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, inflyatsiya prognozini shakllantirishda faqat statistik ma'lumotlarga asoslanish yetarli emas, balki iqtisodiy agentlarning inflyatsion kutilmalarini ham chuqur o'rganish zarur. Chunki kutilmalar iqtisodiyot ishtirokchilarining kelgusidagi xatti-harakatlariga, narx belgilash va xarajat siyosatiga, investitsiya va iste'mol qarorlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Inflyatsion kutilmalar deganda aholining, tadbirkorlarning, investorlarning va iqtisodiy siyosat yurituvchilarining kelajakda narxlar darajasining qanday o'zgarishiga ishonishi yoki taxmini tushuniladi. Bu kutilmalar real iqtisodiy voqealarga, hukumat siyosatiga, tashqi iqtisodiy muhitga va moliyaviy bozorlardagi o'zgarishlarga qarab shakllanadi. Agar aholining inflyatsiyaga nisbatan kutilmalari yuqori bo'lsa, ular o'z xarid qarorlarini oldinga suradi, bu esa talabni oshirib, inflyatsiyani tezlashtirishi mumkin. Aksincha, inflyatsion kutilmalar past bo'lsa, bu iqtisodiyotdagi ishonchni mustahkamlaydi va narxlarning barqarorlashuviga yordam beradi. Shu sababli, inflyatsion kutilmalarni boshqarish Markaziy banklar uchun strategik vazifalardan biridir.

Inflyatsion kutilmalar aholi, biznes va moliya bozorlari ishtirokchilarining kelgusidagi narxlar o'zgarishi bo'yicha kutilmalarini aks ettiruvchi muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Ular joriy inflyatsiya va ish haqi darajasi, iste'mol va investitsion faollikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tadbirkorlar o'z mahsulotlari uchun narx belgilashda inflyatsion kutilmalariga asoslanadi. Ular inflyatsiyaning tezlashishini kutgan taqdirda, kelgusidagi narx o'zgarishi bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarni qoplash uchun narxlarni oldindan oshirishlari mumkin. Shuningdek, ishchilarning narxlar o'sishi tezlashishi bo'yicha xavotirlari ish haqini oshirishga bo'lgan talablarining ortishida namoyon bo'ladi. Bu esa ish beruvchilarning ish haqi xarajatlari oshishiga va mahsulotning yakuniy narxi qimmatlashishiga olib keladi. Talab nuqtai nazaridan esa iste'molchilar kelgusida narxlar o'sishidan






xavfsirab, kelajakdagi ehtiyojlari uchun tovarlarni oldindan xarid qilishadi. Natijada, joriy ehtiyojdan yuqori talab shakllanib, bu narx-navoning o'sishiga sabab bo'ladi. Shu jihatdan inflyatsion kutilmalar real inflyatsiya jarayonlarining shakllanishiga bevosita turtki bo'luvchi omil sifatida e'tirof etiladi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kredit siyosatini ishlab chiqishda aholi va tadbirkorlarning inflyatsion kutilmalarini o'rganish, tahlil qilish hamda ularni inflyatsiyaning 5 foizlik targeti atrofida barqarorlashishiga alohida e'tibor qaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki so'nggi yillarda inflyatsion targetlash siyosatini bosqichma-bosqich joriy etmoqda. Ushbu yondashuvda asosiy e'tibor inflyatsiyani ma'lum darajada ushlab turish bilan birga, aholining inflyatsiya haqidagi kutilmalarini barqarorlashtirishga qaratilgan. Markaziy bankning rasmiy kommunikatsiyasi, prognoz hisobotlari, statistik sharhlar va "inflyatsion kutilmalar indeksi"ni e'lon qilish amaliyoti orqali iqtisodiy agentlarga aniq va ishonchli axborot yetkazilmoqda. Bunday yondashuv aholining iqtisodiy qarorlarida aniqlikni oshirib, monetar siyosat samaradorligini kuchaytiradi.

O'zbekistonda inflyatsion kutilmalar masalasi alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqd chunki mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, milliy valyutaning erkinlashtirilishi, tashqi bozorlardagi o'zgaruvchanlik va ichki talabning o'sishi inflyatsiya jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sharoitda aholining inflyatsiyaga oid kutilmalari nafaqat iqtisodiy barqarorlikni, balki pul-kredit siyosatining natijadorligini ham belgilab beradi. Masalan, agar aholi inflyatsiya yuqori bo'ladi deb hisoblayotgan bo'lsa, ular o'z jamg'armalarini uzoq muddatli saqlashdan voz kechadi yoki iste'molni oshiradi, bu esa inflyatsiyani kuchaytiradi. Shu bois, Markaziy bank tomonidan kutilmalarni boshqarish, ularni monitoring qilish va tahlil qilish jarayonlarini takomillashtirish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Aholining inflyatsion kutilmalari iqtisodiyotdagi narxlar o'zgarishiga nisbatan aholining kelajakdagi kutishlari sifatida qoraladi va ular makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Inflyatsion kutilmalarni o'rganish turli hududlarda aholi ongidagi farqliliklarni aniqlashga yordam beradi.

Shu orqali nafaqat pul-kredit siyosati, balki iqtisodiy rivojlanish strategiyalari ham shakllantiriladi. Ma'lumotlarga ko'ra, aholining inflyatsion kutilmalari turli hududlarda sezilarli farqlanadi. Masalan, ayrim hududlarda aholining ko'pchiligi inflyatsiya darajasi past bo'lishini kutsa, boshqa hududlarda esa yuqori darajadagi o'zgarishlarni kutishadi. Ushbu ma'lumotlar inflyatsiya prognozini ishlab chiqishda, Markaziy bank va moliya idoralari tomonidan turli hududlarda amalga oshiriladigan siyosat va chora-tadbirlarni hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda belgilashga imkon beradi. Hududlar kesimida inflyatsion kutilmalarni o'rganish aholi iqtisodiy xatti-harakatlarini tahlil qilish, iste'mol va jamg'arma qarorlarini prognozlash va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash uchun zarur bo'lgan statistik ma'lumotlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu tadqiqotda 14 ta hudud misol qilib olingan bo'lib, ularning inflyatsion kutilmalari uchta asosiy guruhga ajratilgan: past (8% va undan kamroq), o'rta (9%–16%), yuqori (17% va undan yuqori). Shu tarzda aholi inflyatsion kutish darajasi hududlar bo'yicha solishtirilgan va statistik tahlil uchun qulay shaklga keltirilgan (1-rasm):



1-rasm. Hududlar kesimida aholining inflyatsion kutilmalar bo'yicha javoblar taqsimoti, %¹

¹ <https://cbu.uz/> – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti



Ushbu rasmdagi ma'lumotlar hududlar kesimida aholi inflyatsion kutilmalarining sezilarli farqlanishini ko'rsatadi. Navoiy viloyatida aholining katta qismi (68%) inflyatsiya darajasi o'rtacha bo'lishini kutayotgan bo'lsa, Toshkent shahrida yuqori inflyatsiya kutilmalarining ulushi nisbatan yuqori (32%) ekanligi ko'zga tashlanadi. Shuningdek, Farg'ona va Namangan viloyatlarida past inflyatsion kutilmalar ulushi yuqori bo'lib, aholi inflyatsiya darajasi sezilarli darajada oshmasligini kutmoqda. O'rta darajadagi inflyatsion kutilmalar esa deyarli barcha hududlarda asosiy ko'rsatkich sifatida namoyon bo'ladi, bu aholi orasida inflyatsiya bo'yicha ehtiyotkorlik va sezgirlik mavjudligini bildiradi. Yuqori kutilmalar Toshkent, Toshkent viloyati va Surxondaryo kabi hududlarda nisbatan yuqoriroq bo'lib, bu hududlarda iqtisodiy faollik va narxlar o'zgarishiga bo'lgan sezuvchanlikni aks ettiradi. Hududlar kesimida inflyatsion kutilmalar tahlili Markaziy bank va moliya siyosatini ishlab chiqishda muhim bo'lib, har bir hudud uchun alohida strategiya va kommunikatsion chora-tadbirlarni belgilashga yordam beradi. Shu bilan birga, aholining inflyatsion kutilmalaridagi farqlilik iqtisodiy savodxonlik, axborotga ochiqlik va turmush sharoitlari bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Natijada, hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda inflyatsiya prognozi va kutilmalarni boshqarish siyosati iqtisodiy barqarorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Inflyatsion kutilmalarni o'lchashning turli usullari mavjud. Ularning eng ko'p qo'llaniladigan shakllari so'rovnomalar, iqtisodiy modellash va moliyaviy bozorlardagi ko'rsatkichlarni tahlil qilish usullaridir. So'rovnomalar orqali aholining va tadbirkorlarning inflyatsiya haqidagi qarashlari aniqlanadi. Statistik modellash esa vaqt qatorlari, regressiya va prognoz usullari asosida inflyatsion kutilmalarni hisoblash imkonini beradi. Shuningdek, moliyaviy bozorlardagi obligatsiyalar rentabelligi va valyuta kurslaridagi o'zgarishlar ham kutilmalarning bilvosita o'lchovidir. O'zbekistonda ham Markaziy bank tomonidan har chorakda inflyatsion kutilmalar bo'yicha maxsus so'rovlar o'tkaziladi va ularning natijalari ochiq e'lon qilinadi. Bu amaliyot pul-kredit siyosatini moslashtirish, foiz

stavkalarini belgilash va prognozlarni yangilashda muhim tahliliy manba vazifasini bajaradi.

Bundan tashqari, inflyatsion kutilmalar Markaziy bank kommunikatsiyasining samaradorligi bilan ham bevosita bog'liq. Ya'ni, agar markaziy bank aholiga va biznes subyektlariga o'z siyosiy maqsadlari, inflyatsiya prognozlari va qarorlari haqida aniq, ochiq va ishonchli axborot bersa, bu kutilmalarni ijobiy yo'nalishda shakllantiradi. Aks holda, ma'lumotlarning noaniqligi yoki kechikib berilishi iqtisodiy agentlarning ishonchini pasaytiradi va monetar siyosat samaradorligiga putur yetkazadi. Shu sababli, hozirgi kunda ko'plab rivojlangan mamlakatlarda markaziy banklar "strategik kommunikatsiya siyosati"ni yuritishadi, ya'ni ular inflyatsiya maqsadlari, prognozlari va statistik tahlillarni muntazam e'lon qilib, jamoatchilik bilan ochiq muloqot olib boradi.

O'zbekiston uchun ham bunday yondashuv nihoyatda muhim chunki iqtisodiy islohotlar jarayonida aholining inflyatsiya haqidagi kutilmalarini to'g'ri shakllantirish, ularni barqaror iqtisodiy muhitga ishonch bilan qarashga undash muhim ahamiyatga ega. Bunda inflyatsiya prognozini shakllantirish jarayonida statistik modellar bilan bir qatorda, sotsiologik tahlillar, axborot oqimi va psixologik omillarni hisobga olish zarur.

Xulosa qilib aytganda, inflyatsion kutilmalar inflyatsiya prognozini shakllantirishda faqat yordamchi omil emas, balki uning markaziy komponentlaridan biridir. Ular nafaqat iqtisodiy tahlil natijalarini to'ldiradi, balki siyosat yurituvchilarning qarorlarini real holatga yaqinlashtiradi. Shuning uchun O'zbekiston sharoitida inflyatsion kutilmalarni tizimli o'rganish, ularni statistik va iqtisodiy modellar bilan integratsiyalash, aholi va biznes subyektlarining ishonchini mustahkamlash orqali inflyatsiyani prognoz qilish va boshqarish jarayonlarini yanada samarali tashkil etish zarur. Bu esa o'z navbatida milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga, aholining farovonligining oshishiga va davlat siyosatining ishonchliligi mustahkamlanishiga xizmat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G.Alomani. Global inflation forecasting and uncertainty assessment // Journal of King Saud University – Economics and Administrative Sciences, Elsevier, 2025.
2. Trubnik T., Popliuiko Y., Galitsyna O., Ivanenko O., Mazur M. (2024). “Statistical Analysis of Inflationary Processes’ Impact on Economic Development: Trends, Mechanisms and Models”. Economic Affairs, 69(01), 715–724.
3. Перькова Е.П. Денежно-кредитная политика и инфляционные ожидания экономических агентов // Сборник научных трудов. Воронежский государственный университет, 2022. №6. С. 173–176.
4. Сугарова И.В., Кулумбегова Л.В. Инфляционные ожидания и их влияние на денежно-кредитную политику // Фундаментальные исследования. 2024. № 11. С. 25-29.
5. T.A. Abduqodirov, L.T. Rashidov. Pul-kredit siyosati va valyuta kursi. – T.: Ilm ziyo, 2018. – 192 b.
6. Umarov A.N. O‘zbekiston bozor iqtisodiyotida ekonometrik modellarning qo‘llanilishi // “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali. 2024, 10-son. 1055–1060-betlar.
7. Axmedova Y.S. Investitsiya loyihalari samaradorligining baholash mezonlari va uning o‘ziga xos xususiyatlari // “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali. 7-son, 2024. B. 779–789.
8. <https://cbu.uz/> – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti
9. <http://www.stat.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi sayti